

**MA’MURIY BINOLAR ATROFIDA TUXTAB TURISH JOYLARINI
ZAMONAVIY QURILMALAR BILAN LOYIHALASH VA BU JARAYONDA
IJTIMOIY NORMALAR**

Jumayev Shaxzod Shavkat o‘g‘li,

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

shaxzodj886@gmail.com

Annotatsiya: *Zamonaviy shaharlarda transport oqimi ortib borayotgani sababli to‘xtab turish joylarini samarali tashkil etish dolzarb muammolardan biridir. Ayniqsa, ma‘muriy binolar atrofida avtomobil harakati yuqori bo‘lib, to‘xtash joylarini optimal loyihalash orqali tartib va xavfsizlikni ta‘minlash zarur. Ushbu maqola intellektual (aqlli) texnologiyalar yordamida ushbu muammoni hal qilishni maqsad qiladi va ma‘muriy binolar atrofida tuxtab turish joylarini intellektual qurilmalar bilan loyihalash masalalari yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *Shaharsozlik, funksional, nogironlik, arxitektura, ma‘muriy binolar, to‘xtab turish, intellektual qurilmalar, loyixalash.*

**DESIGNING PARKING AREAS AROUND ADMINISTRATIVE BUILDINGS
WITH MODERN DEVICES AND SOCIAL NORMS IN THIS PROCESS**

Abstract. *Due to the increasing traffic flow in modern cities, the effective organization of parking spaces is one of the urgent problems. Especially around administrative buildings, there is a high level of traffic, and it is necessary to ensure order and safety through optimal design of parking spaces. This article aims to solve this problem using intelligent (smart) technologies and highlights the issues of designing parking spaces around administrative buildings with intelligent devices.*

Keywords: *Urban planning, functional, disability, architecture, administrative buildings, parking, intelligent devices, design.*

KIRISH

Bugungi kunda Respublikamizda intellektual transport tizimini yaratishga katta e‘tibor berilmoqda. Hozirda dunyo bo‘ylab avtomobillar harakati juda tez sur‘atda ko‘paymoqda. Avtomobillarning sezilarli darajada ko‘payishi va yo‘l tarmog‘ining cheklangan imkoniyatlari tufayli juda ko‘p ziddiyatli vaziyatlar yuzaga keladi va transportning harakatchanligi keskin kamayadi. Dunyodagi yirik shaharlarning tajribasi shuni

ko‘rsatadiki, yo‘llarning tirbandligi muammosini faqat magistral yo‘llarni qurish bilan hal qilib bo‘lmaydi: juda ko‘p sonli avtomobillar darhol yo‘lning yangi qismiga shoshilib o‘tishi, tirbandlikni keltirib chiqaradi. Transport oqimini samarali tartibga solish uchun intellektual transport tizimlarini joriy qilish kerak.

MUHOKAMA

Qarshi shahrida joylashgan ma‘muriy binolar atrofida to‘xtab turish joylarini intellektual qurilmalar bilan loyixalash borasida qilinadiga asosiy ishlar bu - jamoat binolari xizmat ko‘rsatish sohasiga kiradi. Ular ta‘lim, tarbiya, tibbiy, madaniy va boshqa faoliyat uchun foydalaniladi. Bu jarayonlarning barchasi muayyan shartlarni talab qiladi. Respublikamizning shaharsozlik kodeksi so‘nggi tahririda asosiy me‘yoriy hujjat bo‘lib, unda qaysi ob‘ektlarga mos kelishi kerakligi ko‘rsatilgan. Turli qonun qoidalarini konkretlashtirilgan. Ulardan biri sifatida "Jismoniy binolar va inshootlar" qo‘shma qaror imzolangan. Qonun jamoat binolarini loyihalashtirish uchun standartlarni belgilaydi. Maqolada ob‘ekt rejasini tuzishning umumiy qoidalarini ko‘rib chiqilgan.

Bugungi kunda ma‘muriy binolar atrofida avtomobil to‘xtab turish joylarini boshqarishda quyidagi texnologiyalar keng qo‘llash kerak:

1. Avtomatik raqam tanib olish tizimi (ANPR) – transport vositasining raqamini avtomatik aniqlab, kirish-chiqishni nazorat qiladi.
2. Sensorli monitoring tizimlari – to‘xtash joyining band yoki bo‘sh holatini aniqlovchi sensorlar.
3. Mobil ilovalar va onlayn to‘lov tizimlari – foydalanuvchilar oldindan band qilish, vaqtni kuzatish, va to‘lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
4. Video nazorat va xavfsizlik kameralar – jamoat tartibini saqlash va noqonuniy harakatlarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.
5. LED indikatorli navigatsiya – haydovchilarga bo‘sh joylarni tezda topishda yordam beradi.

Davlat tashkilotlari va shaxslarning avtotransport vositalari uchun ajratilgan to‘xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun haq olish aloxida belgilangan. Bozorlar, savdo majmualari va boshqa ob‘ektlar hududlaridagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtotransport vositalari to‘xtab turish joylari namunaviy chizma asosida jihozlanadi. Ko‘p qavatli avtotransport vositalari to‘xtash joylarida nogironligi bo‘lgan shaxslar avtotransport vositalarining to‘xtab turishi uchun joylar birinchi qavatda va boshqa qavatlarda liftga yaqin joylardan ajratilishi kerak.

Turar-joy binolarini va ijtimoiy binolarni loyihalash alohida faoliyat sohasi hisoblanadi. Ushbu joylarga avtomatik raqam tanib olish tizimi (ANPR) - ya‘ni bu videokameralar va sun‘iy intellekt algoritmlari yordamida transport vositalarining davlat

raqamlarini avtomatik ravishda aniqlab, raqamlarni matnga aylantiruvchi texnologik tizim hisoblanib bu tizimdan keng foydalanish kerak. Mexanikning ichki muhitining samarali ishlashi odamni tashqi omillarning salbiy ta'siridan himoya qilishga qaratilgan maxsus tadbirlarni keng miqyosda tashkil etish va amalga oshirish hisobiga ta'minlanadi. Strukturaning asosiy sifati – bu faoliyatda amalga oshiriladigan faoliyatning muvofiqligi. Funktsional xususiyatlar xilma-xildir. Ular nafaqat insonlar ehtiyojlarining murakkabligi va xilma-xilligini, balki ilmiy va texnologik darajasini, yerning xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Binoning maqsadi asosiy me'moriy parametrlarni belgilaydi. Bunday holatda, ob'ektning maqsadga muvofiq keladigan maqsadlari doimo o'z vaqtida o'zgarib turadi. Tuzilmalarning yangi turlarining paydo bo'lishi struktura va materiallarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. Ular, o'z navbatida, yangi arxitektura ansambllarini joriy etishga yordam beradi. Ushbu diyalektik birlik qurilish sohasining izchil rivojlanishi uchun eng muhim shartdir. Arxitekturaning badiiy va funktsional vazifalari aniq shakllarda amalga oshiriladi. Ular kuch va mustahkamlikni, ob'ektlarning va ularning qismlarining ishonchliligini ta'minlaydi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar avtotransport vositalarining to'xtab turish joylari to'xtab turish joyi umumiy maydonining kamida 5 foizini (kamida 2 ta joy) tashkil etishi lozim.

Nogironligi bo'lgan shaxslar avtotransport vositalarining to'xtab turish joylariga Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrda 370-son qarori bilan tasdiqlangan Yo'l harakati qoidalarining 1-ilovasiga muvofiq «5.15. To'xtab turish joyi» va «7.17. Nogironlar» yo'l belgilari o'rnatiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun ajratilgan to'xtab turish joylaridan «Nogiron haydovchi boshqarayotgan avtomobil» taniqlik belgisi o'rnatilgan avtotransport vositasini boshqarayotgan I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar — nogironlikni tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi hamda 16 yoshgacha nogiron bolasi bo'lgan ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) — 16 yoshgacha nogiron bola uchun tayinlangan tegishli pensiya guvohnomasi bo'lganda foydalanishi mumkin.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning avtotransport vositalari uchun ajratilgan to'xtab turish joylaridan foydalanganlik uchun haq olinmaydi.

Bozorlar, savdo majmualari va boshqa ob'ektlar hududlaridagi nogironligi bo'lgan shaxslarning avtotransport vositalari to'xtab turish joylari namunaviy chizma asosida jihozlanadi. Ko'p qavatli avtotransport vositalari to'xtash joylarida nogironligi bo'lgan shaxslar avtotransport vositalarining to'xtab turishi uchun joylar birinchi qavatda va boshqa qavatlarda liftga yaqin joylardan ajratilishi kerak.

Bozorlar, savdo majmualari va boshqa ob'ektlar hududlaridagi nogironligi bo'lgan shaxslarning avtotransport vositalari to'xtab turish joylariga ko'k fonda 2x2 metr o'lchamli sariq chiziqli nogironligi bo'lgan shaxs avtotransport vositasining to'xtab turish joyini

bildiruvchi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrda 370-son qarori bilan tasdiqlangan Yo‘l harakati qoidalarining 2-ilovasiga muvofiq 1.24 «Nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtotransport vositalari to‘xtab turish joyi» yotiq chizig‘i chiziladi.

XULOSA

Ma‘muriy binolar atrofida to‘xtab turish joylarini zamonaviy qurilmalar yordamida loyihalash nafaqat transport oqimini samarali boshqarish, balki shahar muhitida ijtimoiy intizomni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Texnologiya va ijtimoiy normalarning uyg‘unlashuvi orqali fuqarolar uchun xavfsiz, qulay va zamonaviy shahar infratuzilmasini yaratish mumkin. Binolar, bozorlar, savdo majmualari va boshqa ob‘ektlar hududlaridagi nogironligi bo‘lgan shaxslarning avtotransport vositalari to‘xtab turish joylarining o‘lchamlari avtomobil harakat yo‘nalishiga burchak ostida qo‘yilganda eni 3,5 metr, uzunligi 5 metr, harakat yo‘nalishiga parallel qo‘yilganda eni 2,5 metr, uzunligi 7,5 metr bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Barbara Flugge. Smart mobility – connecting everyone. 2017.